

TURIZM SOHASINI RAQAMLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI

Berdiyev Baxtiyor Sodikovich

Alfraganus universiteti

“Xalqaro turizm menejmenti” kafedrasida dotsenti, PhD

Annotatsiya

O‘zbekiston turizm sohasi ulkan salohiyatga ega bo‘lsa-da, uning samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi qator muammolar mavjud. Xususan, turistlarni turizm salohiyati to‘g‘risida to‘liq axborot bilan ta‘minlash, madaniy meros obyektlari va ziyorat turizmini keng targ‘ib qilishda marketing faoliyatining yetarli darajada tashkil etilmaganligi turizm sektori rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Turizm sohasini raqamlashtirish esa bu sohadagi iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni takomillashtirish, samaradorlikni oshirish va ichki hamda xalqaro turizmni rivojlantirish yo‘lida muhim qadam sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, mazkur maqolada O‘zbekiston turizmida raqamli marketing vositalaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: eksport, iqtisodiyot, tibbiyot, ziyorat, turizm, marketing, menejment, tur, investitsiya, ustuvorlik, salohiyat, turist, urf-odat, an‘analar, milliy qadriyat.

Аннотация

Туристический сектор Узбекистана имеет большой потенциал, существует ряд проблем, препятствующих его эффективному развитию. В частности, негативное влияние на развитие туристической сферы оказывает предоставление туристам полной информации о потенциале туризма, а также недостаточная организация маркетинговой деятельности по широкому продвижению объектов культурного наследия и паломнического туризма. Цифровизация туристической сферы имеет актуальное значение как важный шаг на пути улучшения экономических и организационно-правовых условий в этой сфере, повышения эффективности и развития внутреннего и международного туризма. Соответственно, в данной статье разработаны предложения и рекомендации по использованию инструментов цифрового маркетинга в туризме Узбекистана.

Ключевые слова: экспорт, экономика, медицина, паломничество, туризм, маркетинг, менеджмент, тур, инвестиции, приоритет, потенциал, турист, традиция, традиция, национальная ценность.

Abstract

Although the tourism sector of Uzbekistan has great potential, there are a number of problems that hinder its effective development. In particular, the insufficient organization of marketing activities to provide tourists with complete information about the tourism potential, the widespread promotion of cultural heritage sites and pilgrimage tourism have a negative impact on the development of the tourism sector.

The digitalization of the tourism sector is an important step towards improving the economic and organizational and legal conditions in this area, increasing efficiency, and developing domestic and international tourism. Accordingly, this article develops proposals and recommendations for the use of digital marketing tools in Uzbek tourism.

Keywords: export, economy, medicine, pilgrimage, tourism, marketing, management, tour, investment, priority, potential, tourist, customs, traditions, national value.

KIRISH

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan tarmoqlardan biriga aylandi. Oldinlari turizmga aholining sayohat qilishi va dam olishini ta'minlovchi oddiy infratuzilma sifatida qaralgan bo'lsa, ayni paytda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida shakllanib, rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Turizm inson hayoti va faoliyatining ko'p sohalarini qamrab oladi. Turizm ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos katalizatori sifatida transport va aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo'jaligi, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishi va iqtisodiyotning boshqa shu kabi muhim sektorlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Eksportha yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – turizm industriyasidir. Turizm – bu ishbilarmonlik sohasining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, xorijiy turistlar doimiy oqimini jalb qiladi:

tur – turistik xizmatlarning kamida ikkita turini o'z ichiga olgan turistik xizmatlar majmui bilan ta'minlangan, belgilangan yo'nalish bo'yicha aniq muddatlardagi sayohat;

turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi);

turist – vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to'rt soatdan ketma-ket o'n ikki oygacha bo'lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs;

turizm sohasining sub'ektlari – turistik xizmatlar majmuini yoki ularning bir qismini ko'rsatish, qo'shimcha turistik xizmatlarni (ishlarni) bajarish hamda turistlar va ekskursantlarga tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'la turib, uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanilmadi. Joylashtirish vositalari va infratuzilma ob'ektlarining, ayniqsa turizm mavsumida yetishmasligi, turli transportlarda yo'lovchilarni tashish tizimining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkillashtirish darajasining pastligi, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros ob'ektlarining va ziyoratning

o‘ziga xosliklarini targ‘ib qilish bo‘yicha marketing kompaniyalarining samarasizligi turizmni jadal rivojlantirishga salbiy ta‘sir qilib keldi¹.

Turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ‘ib qilish, shuningdek, O‘zbekistonning turizm salohiyatini targ‘ib qilish va xorijiy turistlarni jalb qilishga qaratilgan qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha “Yo‘l xaritasini” har yil tasdiqlash²;

- O‘zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ‘ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imijini mustahkamlash;

- O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar — “Xiva shahridagi Ichan-qal‘a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo‘lib, YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan³.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini ta‘minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro‘yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog‘ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ‘ib qilish imkonini berdi.

So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Shu jumladan, Toshkent shahrida “Hyatt Regency Tashkent” va “Lotte City Hotel Tashkent Palace” brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shaharlarida madaniy-ko‘ngilochar bog‘larning tashkil etilishi, “Angren–Pop” temir yo‘li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo‘llar ochilishi e‘tiborga molikdir.

METODOLOGIYA

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta‘minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imijini yaxshilashga

¹ Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.X., Pardayev M.Q.. Turizmni rejalashtirish. Darslik. “Iqtisodiyot moliya” nashriyoti. Toshkent. 2010 yil

² Turizm Uzbekistan gazetasi №2 (02) 3 mart. 2017 yil

³ O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmoni PF-6165 09.02.2021

qaratilgan. 2018 yilda kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O‘zbekistonda bo‘lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ‘ib qilish choralari ko‘rilgani ko‘rsatish mumkin, shu jumladan:

- qo‘shimcha 11 ta (umumiy 22 ta) davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 14 tadan 53 taga ko‘paygani;

- elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgani, O‘zbekiston hududidan tranzit bilan o‘tayotgan 104 davlat fuqarolariga O‘zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo‘lish va fuqarolarni o‘tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingani;

- xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro‘yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib “E-MENMON” tizimi orqali to‘liq elektron shaklga o‘tkazilgani¹;

- mehmon uylarini sertifikatlash tartibi bekor qilingani. Mamlakatlar orasida viza rejimini soddalashtirish fuqarolarning mobilligini ta‘minlash bilan bir qatorda rasmiylashtirish xarajatlarni kamaytiradi va chet ellik sayyohlar oqimini ko‘paytiradi.

2018 yilda 10 ta davlat fuqarolari uchun O‘zbekistonda vizasiz rejim joriy qilingan bo‘lsa, 2019 yilda 49 ta, 2020 yilda 22 ta va 2021 yilda yana 7 ta mamlakat fuqarolari uchun viza talablari turli muddat doirasida bekor qilindi. 2021 yilning 15 aprel holatiga ko‘ra, fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 92 tani tashkil qiladi. Bundan tashqari 81 ga yaqin mamlakat fuqarolari soddalashtirilgan tartibga ko‘ra elektron viza rasmiylashtirish imkoniyati ega bo‘ldi. Xorijiy davlat fuqarolarining alohida turlari uchun «Vatandosh», «Talaba», «Akademik», «Tibbiyot» va «Ziyorat» kabi yangi 5 xil viza turlari joriy qilindi. 2019 yilda chet ellik sayyohlar sonining o‘ssisi o‘rtacha 27 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar o‘rtasida o‘shish ko‘rsatkichi 59 foizga yetgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sohasini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 2019-2020 yillarda — turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ‘ib qilish;

- infratuzilmani — 2021-2025 yillarda — mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko‘paytirish. Ushbu yo‘nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 6 foizgacha (2017 yil yakuni bo‘yicha — 2,4 %) yetkazish, shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar 9,6 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xorijdan – 2,2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan.

¹ <https://stat.uz> – Rasmiy sayti

2021-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari

| T/r | Ko‘rsatkichlar nomi | Y i l l a r | | | | |
|-----|---|-------------|-------|-------|-------|-------|
| | | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
| 1 | O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi) | 8399 | 10014 | 10606 | 11254 | 11817 |
| 2 | Turizm xizmatlari eksporti (mln. AQSh dollari) | 1622 | 1908 | 2005 | 2084 | 2177 |
| 3 | Ichki turistlar soni (mingta tashrif) | 18808 | 20319 | 21868 | 23407 | 25016 |
| 4 | Turoperatorlar soni (nafar) | 1255 | 1324 | 1395 | 1423 | 1454 |

Turizm sohasini rivojlantirish mamlakatimizni yanada gullab yashnashida, hattoki, chekka-chekka hududlaridagi infratuzilmasining yaxshilanishida muhim o‘rin tutadi. Yurtimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlar sonini oshirish borasida takliflarim quyidagicha:

Turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish;

jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar sonini ko‘paytirish, shu orqali raqobatni kuchaytirish;

mehmonxona narxlarini arzonlashtirish. Chun-ki, turpaketlar narxi oshgan sayin, yurtimizga keladigan sayyohlar soni ham pasayib boradi. Buning natijasida ular ancha arzon narxlarga ega bo‘lgan boshqa mamlakatlarga borishni afzal ko‘rishadi;

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘zbekistonni turistik davlat sifatida yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan soha mutaxassisleri bilan hamjihatlikda O‘zbekiston to‘g‘risida bitta ixcham «sayyohlar uchun qo‘llanma» tayyorlanib, uni barcha tillarga tarjima qilib, arzon narxda yoki agarda imkoni bo‘lsa, bepul chet sayyohlik firmalariga tarqatish¹;

Yurtimiz, urf-odat va an‘analarimiz, milliy qadriyat va boy tarixiy merosimiz haqida hujjatli va badiiy filmlar konkursi e‘lon qilinsa va eng saralarini rag‘batlantirib, ular yaratgan filmlarni ingliz, nemis va boshqa tillarga dublyaj qildirib, xalqaro konkurslarda qatnashsak, sayyohlar soni oshishi tayin.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkin-ki, mamlakatimizda eng avvalo turizmni raqamlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, endi-gi navbat esa, ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanish talab etiladi.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4143188> 151

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni 2017 yil 5 dekabr PF-5273 son.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmoni PF-6165 09.02.2021
3. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.X., Pardayev M.Q.. Turizmni rejalashtirish. Darslik. “Iqtisodiyot moliya” nashriyoti. Toshkent. 2010 yil.
5. <https://stat.uz> – Rasmiy sayti.
6. <https://lex.uz/ru/docs/-4143188> 151